

## **O‘ZBEKISTONNING TABIIY RESURS SALOHİYATI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH**

Choriyev Abdiqayim Qodirovich - Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi.

Sherboyeva Qizlarbek Shoirovna - Termiz davlat universiteti talabasi

Noriyeva Sevinch Akbar qizi - Termiz davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi tabiiy resurslari, jumladan yer, suv foydali qazilmalar, neft-gaz, quyosh energiyasi hamda biologik resurslarning iqtisodiyotdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni kamaytirish, resurslarni tejash texnologiyalarini joriy etish hamda barqaror rivojlanishni ta’minlash masalalari tahlil qilingan. Maqolada mamlakatning tabiiy boyliklarini asrash va kelajak uchun saqlab qolish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** tabiiy resurslar, foydali qazilmalar, suv resurslari, ekologiya, barqaror rivojlanish, quyosh energiyasi, neft va gaz resurslaridan samarali foydalanish, O‘zbekiston iqtisodiyoti.

### *NATURAL RESOURCE POTENTIAL OF UZBEKISTAN AND THEIR EFFICIENT UTILIZATION*

**Choriyev Abdiqayim Qodirovich** – Senior Lecturer, Termez State University,  
Uzbekistan

**Sherboyeva Qizlarbek Shoirovna** – Student, Termez State University,  
Uzbekistan

**Noriyeva Sevinch Akbar qizi** – Student, Termez State University, Uzbekistan

**Abstract.** This article highlights the economic significance of the natural resources of the Republic of Uzbekistan, including land, water resources, mineral deposits, oil and natural gas, solar energy, and biological resources. It also analyzes issues related to the rational use of natural resources, the reduction of environmental problems, the implementation of resource-saving technologies, and the achievement of sustainable development. Furthermore, the article provides

recommendations and practical suggestions aimed at conserving the country's natural wealth and preserving it for future generations.

**Keywords.** natural resources, mineral resources, water resources, ecology, sustainable development, solar energy, efficient utilization of oil and gas resources, economy of Uzbekistan.

O‘zbekiston tabiiy resurslarga boy mamlakatlardan biri bo‘lib, uning hududida yer, suv, foydali qazilmalar, neft-gaz, rangli metallar hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalari keng tarqalgan. Ushbu resurslar sanoat, qishloq xo‘jaligi va energetika tarmoqlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish suv tanqisligi, tuproq sho‘rlanishi, atrof-muhit ifloslanishi va biologik xilma-xillikning kamayishi kabi ekologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli resurslardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda yashil iqtisodiyot tamoyillarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston tabiiy resurslarga boy davlatlardan biri bo‘lib, foydali qazilmalar, yer-suv resurslari va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga ega. Ushbu resurslar mamlakatning sanoat, qishloq xo‘jaligi va energetika tarmoqlari rivojlanishining asosiy omillaridan hisoblanadi. Respublikada 2700 dan ortiq foydali qazilma konlari aniqlangan bo‘lib, ularda 100 ga yaqin mineral xomashyo turlari mavjud.

O‘zbekiston oltin qazib olish bo‘yicha dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kiradi. Respublikada 100 dan ortiq oltin konlari aniqlangan bo‘lib, ulardan eng yirigi Navoiy viloyatidagi Muruntov konidir. Qizilqum cho‘lida joylashgan ushbu kon dunyodagi eng yirik ochiq oltin konlaridan biri hisoblanadi hamda Navoiy kon-metallurgiya kombinatining asosiy xomashyo bazasi sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, Ko‘kpatas, Zarmitan, Marjonbuloq, Guzasoy va Qizilolmasoy konlari ham oltin qazib olishda muhim ahamiyatga ega.

Mis resurslari ham mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. Ularning asosiy qismi Toshkent viloyatining Olmaliq va Ohangaron hududlarida joylashgan bo‘lib, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati Markaziy Osiyodagi yirik metallurgiya korxonalaridan biri hisoblanadi. Mazkur hududlarda mis bilan bir qatorda oltin, kumush, qo‘rg‘oshin va rux kabi rangli metallar ham qazib olinadi. Mis resurslaridan mashinasozlik, elektrotexnika va qurilish sanoatida keng foydalanilib, uning eksporti mamlakat iqtisodiy daromadlarining muhim manbalaridan biriga aylanib bormoqda.

Qo‘rg‘oshin va rux konlari Surxondaryo hamda Toshkent viloyatlarida joylashgan. Ayniqsa, Xonjiza, Uchquloch, Chinorsoy, Lashkerek va Kulchuloq konlari ushbu metallar zaxiralariga boyligi bilan ajralib turadi. Qo‘rg‘oshin va rux metallurgiya sanoatida, kimyo sanoatida hamda turli ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Volfram va molibden konlari Jizzax, Samarqand hamda Navoiy viloyatlarida uchraydi. Qo‘ytosh va Ingichga konlari volfram qazib olish bo‘yicha mashhur hisoblanadi. Ushbu metallar mashinasozlik, harbiy sanoat va yuqori haroratga chidamli qotishmalar tayyorlashda ishlatiladi. Respublikada volframning yangi istiqboli konlarini o‘zlashtirish bo‘yicha geologik izlanishlar davom etmoqda.

O‘zbekiston uran zaxiralari bo‘yicha ham dunyodagi yirik davlatlardan biri hisoblanadi. Uran konlari asosan Navoiy viloyatining Uchquduq, Zarafshon va Navbahor hududlarida joylashgan. Uran asosan atom energetikasida foydalaniladi. Jahon statistikasiga ko‘ra, O‘zbekiston uran ishlab chiqaruvchi yetakchi davlatlar qatoriga kiradi. Uran eksporti mamlakat valyuta tushumining muhim manbalaridan biri hisoblanadi.

Yoqilg‘i-energetika resurslari mamlakat iqtisodiyotining asosiy tayanchidir. O‘zbekiston tabiiy gaz zaxiralari juda katta bo‘lib, ular asosan Qashqadaryo, Buxoro, Surxondaryo va Qoraqalpog‘iston hududlarida joylashgan. Gazli, Sho‘rtan, Muborak, Ko‘kdumaloq va G‘uzor konlari eng yirik gaz konlari hisoblanadi. Gazli koni 1955 - yilda aniqlangan bo‘lib, uzoq yillar davomida

mamlakatning asosiy gaz bazasi bo'lib xizmat qilgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda yiliga o'nlab milliard kub metr tabiiy gaz qazib olinadi. Tabiiy gaz elektr energiyasi ishlab chiqarish, sanoat korxonalarini energiya bilan ta'minlash va aholi ehtiyojlarini qondirishda asosiy manba hisoblanadi.

Neft konlari asosan Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida joylashgan. Mingbuloq, Ko'kdumaloq, Farg'ona vodiysi O'zbekistondagi neft qazib olish boshlangan ilk hududlardan biri sanaladi. Neft mahsulotlari transport, energetika sanoatida va kimyo sanoatida xomashyo vazifasini bajaradi.

Ko'mir sanoati resurslari ham iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega. Angren, Sharg'un va Boysun ko'mir konlari hisoblanadi. Angren koni Markaziy Osiyodagi eng yirik qo'ng'ir ko'mir konlaridan biri bo'lib, asosan, elektr energiyasi ishlab chiqarishda foydalaniladi. Sharg'un va Boysun konlari esa Surxondaryo viloyatida joylashgan bo'lib, toshko'mir qazib olishga ixtisoslashgan. Respublikada yiliga bir necha million tonna ko'mir qazib olinadi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari O'zbekistonning kelajakdagi rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Respublikada yil davomida 300 dan ortiq quyoshli kunlar kuzatiladi. Shu sababli quyosh energiyasi salohiyati juda yuqori hisoblanadi. Navoiy, Samarqand va Buxoro viloyatlarida zamonaviy quyosh elektr stansiyalari qurilgan. Shamol energetikasini rivojlantirish bo'yicha ham Qoraqalpog'iston va Navoiy viloyatlarida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu loyihalar ekologik toza energiya ishlab chiqarish va tabiiy gaz sarfini kamaytirishga xizmat qiladi.

Biologik resurslar O'zbekistonning muhim tabiiy boyliklaridan biri bo'lib, o'simliklar, hayvonot dunyosi, o'rmon va yaylovlarni o'z ichiga oladi. Respublikada 27 mingdan ortiq o'simlik va hayvon turlari uchraydi, ularning bir qismi endemik va noyob hisoblanadi. Biologik xilma-xillikni saqlash maqsadida Chotqol biosfera qo'riqxonasi, Zomin milliy bog'i, Nurota va Qizilqum qo'riqxonalari kabi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etilgan. Bu

hududlar noyob turlarni asrash va ekologik muvozanatni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa.** O'zbekiston oltin, mis, uran, neft-gaz, yer-suv va biologik resurslarga boy mamlakatlardan biri bo'lib, ushbu boyliklar iqtisodiy o'sish, sanoat taraqqiyoti va eksport salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq resurslardan samarasiz foydalanish suv tanqisligi, cho'llanish va ekologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, energiya tejamkor va qayta tiklanuvchi texnologiyalarni keng joriy etish hamda ekologik madaniyatni yuksaltirish barqaror rivojlanishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.- Т . Ўзбекистон , 2017.
2. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi.- Toshkent O'qituvchi, 2002
3. Soliyev A, Mahmudov. T O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi.- Toshkent: universitet, 2018.
4. Mamajonov M . O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi, 2019
5. Янчук С.Л. Экономическая и социальная география. Учебное пособие. – Т.: Ijod-Press, 2019. -188 с.